





## 2021- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **6071,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **112,7 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3371 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **3,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **66,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **5,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **19,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **25,0 %**) o'sishidir.



**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2021-yil	01.12.2022-yil	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3289</b>	<b>3371</b>	<b>102,5</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	838	882	105,3
Shahrisabz	139	142	102,2
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	145	141	97,2
Dehqonobod	151	153	101,3
Qamashi	181	165	91,2
Qarshi	384	381	99,2
Koson	273	302	110,6
Kitob	133	123	92,5
Mirishkor	83	82	98,8
Muborak	188	178	94,7
Nishon	118	124	105,1
Kasbi	150	160	106,7
Chiroqchi	203	213	104,9
Shahrisabz	115	112	97,4
Yakkabog'	188	213	113,3


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (26,2 %), Qarshi (11,3 %) va Koson (9,0 %) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1338,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 215,3 % ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 10,4 % punktga ko'payib, 21,9 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shahrisabz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **43,8** % i yoki 2020- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan **137,7** %), Qarshi shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,4** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **219,2** %), Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **37,3** % i) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payishi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **53,1 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **7,1** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etgan holda **3241,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,0 %** ni tashkil etdi yoki **1529,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**


*o'sish sur'ati, % da*

*ulushi, % da*



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **262,1** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5847,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,3 %** va **95,7 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur‘ati, % da</b>	<b>Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>6071,9</b>	<b>112,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	1820,5	124,0	30,0
<b>Shahrisabz</b>	365,3	121,0	6,0
<i>tumanlar:</i>			
<b>G‘uzor</b>	409,7	110,7	6,7
<b>Dehqonobod</b>	155,5	103,2	2,6
<b>Qamashi</b>	182,2	116,8	3,0
<b>Qarshi</b>	394,0	82,0	6,5
<b>Koson</b>	415,6	85,3	6,8
<b>Kitob</b>	352,7	115,8	5,8
<b>Mirishkor</b>	147,3	77,6	2,4
<b>Muborak</b>	272,2	129,1	4,5
<b>Nishon</b>	211,6	107,5	3,5
<b>Kasbi</b>	252,3	137,0	4,2
<b>Chiroqchi</b>	564,4	155,3	9,3
<b>Shahrisabz</b>	172,4	128,0	2,8
<b>Yakkabog‘</b>	356,3	92,0	5,9



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-dekabr oylarida**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,9 % i yoki **4123,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**67,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **866,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.

**21,0 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1855,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 45,0 % ni tashkil etdi.


**45,0 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1400,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,0 % ni tashkil etdi.

**34,0 %**


Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Qarshi sh. (1820,5 mlrd. so'm), Chiroqchi (564,4 mlrd. so'm), Koson (415,6 mlrd. so'm) hamda G'uzor (409,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 75 221-32-47